

BOLANING RIVOJLANISHIDA OTA-ONANING BURCH VA VAZIFALARI, ULARNING FARZAND HAYOTIDAGI O’RNI

Valiyeva Xurshida

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 2 -boshqich talabasi

Tel: +998339029003

xurshidavaliyeva01@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolam ota-onalar o‘z farzandlarini yetarlicha tarbiyalashlari va ular oldidagi burch va majburiyatlarini bajarishlarini bayon qiladi. Farzand kelajakda qanaqa inson bo‘lib yetishishida ota-onaning tutgan o‘rni katta hisoblanadi. Bolalarning sog‘lom muhitda tarbiya olishi va uning keyingi hayotiga ta‘siri va yosh bolaning yetuk shaxs sifatida rivojlanishi uchun ota onaning bergan ma‘naviy ta‘lim tarbiyasi muhim va ular o‘z farzandlariga oldidagi burch va vazifalarini bajarishlari lozimdir.

Kalit so‘zlar: Ota-onaning burchlari, farzand oldidagi vazifalari, ota-ona, farzand tarbiyasiga bog‘liq yangi qarorlar, bolaning yetuk shaxs bo‘lishi, jamiyatga kerakli inson ulg‘aytirish

Bola tug‘ilar ekan, u individ hisoblanadi va shu kundan e‘tiboran ulg‘ayishni boshlaydi. Individning shaxs bo‘lib yetishishida ota onaning o‘rni katta hisoblanadi. Farzand tug‘ilganmi, demak ota-ona u uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Endigina tug‘ilgan chaqaloq keyingi bilim, tarbiyani ota onasidan o‘l boshlaydi. U o‘zini qurshab turgan tevarak olam yonida hayot kechirayotgan odamlarning xatti-harakatlaridan o‘ziga kerakli xulosa chiqarib ulg‘ayishni boshlaydi. Bolaning rivojlanishida uning yon atrofdagilarning munosabati va ularning boshqalarga nisbatan javob reaksiyalari natijasida o‘zi uchun oz miqdorda ma‘lumotlar bazasini shakllantirib boradi va hayotga tadbiiq qila boshlaydi. Bola dunyoga kelar ekan u uchun birinchi tanish insonlar bu uning ota-onasi hisoblanadi. U o‘z otasining qiladigan ishlariga taqlid qila boshlaydi va ularga o‘xshash harakat qilishga urinadi. "Qush uyasida ko‘rganini qiladi" degan maqol bejizga aytilmagan, negaki bola ulg‘ayar ekan u o‘zi uchun ota-onasini ideal inson hisoblaydi va ulardan olgan saboqlar yuzasidan o‘zining ma‘naviy ongini rivojlantira boshlaydi. Demak tarbiya bu uydan boshlanadi. Qanaqa tarbiya berish esa ota-onaning bilim salohiyatiga bog‘liqdir. Bola tug‘ildimi ota-onalarning o‘z farzandlari oldidagi vazifa va burchlarini ado etishlari, bolani komil inson qilib tarbiyalashlari kerakdur. Misol qilib aytganda, ota-ona o‘z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o‘z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o‘z bolalarining sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma‘naviy va

axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi. Ota-ona o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar. Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega. Ota-ona bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'minlashi shart. Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart." „Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi.

Ota-ona o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar. Vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-ona va bolalar manfaatlarini o'rtasida qarama-qarshilik borligi aniqlanganda, ota-ona o'z bolalarining manfaatlarini himoya qilishga haqli emas. Ota-ona va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlashi shart."¹ Mana ushbu qarorlar ham bolalar oldida ota onalarning vazifa burchlarini qonun tarafdin ham belgilab qo'yilganligiga yaqqol misol bo'la oladi. Bola tarbiyasida mas'ul shaxs bu uning ota-onasi hisoblanadi bolaning qanaqa inson bo'lib ulg'ayishida ham ularning bergan ma'naviy ta'lim tarbiyalariga bog'liqdur. Bolani tarbiya qilayotgan ota ona qanchalik ma'naviyatli va madaniyatli bo'lsa ulardan tarbiya olayotgan bola ham o'z ota onasiga o'xshashga harakat qiladi xuddi ulardek harakatlanishni gapirishni taqlid qila boshlashadi. Ota-onalar demak o'z farzandlariga qanaqa mehr berishsa keyingi avlod vakillari ham o'zlaridan qoladigan avlodlarga shunaqa tarbiya berishadi va avlodlar zanjiri Damin etib avlodlar davomiyligida yetuk insonlar rivojlana boshlaydi va gendergenlik bolalar kamolga yetib yetuklashadi. Tarbiyaning asosiy bosqichi bu ota onaning o'z farzandlariga nisbatan bo'ladigan munosabatda va ular oldidagi vazifalarni to'liq ado qilishlariga va o'z farzandlariga o'rnak bo'lishlaridan boshlanadi. Ota onalarimiz o'zlarining huquqlarini va majburiyatlarini bolalarining huquqlarini bilishlari va bunga amal qilishlari kerak. 18-modda Ota-onalar bolaning tarbiyasi va rivojlanishi uchun umumiy va asosiy mas'uliyatdir. Ular bolaning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishlari kerak.³ Ushbu moddadan ham kelib chiqadikiy ota onalar o'z farzandlari uchun mas'ul shaxs hisoblanib uni vatanga mehr muhabbat ruhida tarbiyalashlari zarur. Bolalarning kim va qanaqa inson bo'lib voyaga yetishlariga javobgar shaxs bu ularning ota onalari bo'lib ular o'z farzandlari oldidagi vazifa burchlarini bajarishlari kerak chunki yurtga barkamol sog'lom fikrlaydigan yoshlarni tarbiya qilib berish ota onaning zimmasiga yuklatilgan yuk hisoblanadi. Bolani ma'naviyatli va ma'daniyatli hayotda o'z o'rnini egallashi, yetarlicha ta'lim olishlari uchun qonun va qarorlar ham chiqarilgan. Ularni bu darajada

ulağayishiga sababchi insonlar esa albatta ota-onadur. Ota bu farzand uchun qirol ona esa qirolicha. U o'zining ota onasini ideal insonlar deb tasavvur qiladi va ularga o'xshashga harakat qiladi. Bola yoshlikdan sog'lom oilaviy muhitda ulg'aysa sog'lom fikrlaydi va jamiyat uchun foydali shaxs bo'ladi. Ko'p hollarda farzand burchi haqida gapiriladi, ammo birinchi o'rinda ota ona burchi turadi va o'z farzandini qanaqa inson bo'lib ulg'ayishida ularning tarbiyasi bo'lakcha hisoblanadi.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi haqida esa unutib qo'yamiz. Zero ota - onaning burchi faqat farzandni dunyoga keltirish, yedirish, ichirish va kyinirishda emas, balki ularning zimmasida ulug' burchlar, vazifalar mavjud ekanligini bildirib qo'yishdan ham iboratdir. Muhtaram ota-onalar, farzandlar ham Alloh taoloning bizga bergan ulug' ne'matlaridan biri. Shunday ekan, biz kelajagimiz davomchilari bo'lgan farzandlarimizni Allohni va Rasulini taniydigan, elu yurtiga, diniga, ota-onasiga, Vataniga sidqidildan xizmat qiladigan o'g'il- qizlar qilib tarbiyalashga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim.² Ko'p hollarda ota onalar o'z farzandlari oldidagi burchlarini unutib qo'yishadi va bola tarbiyasida xatoliklar qilib qo'yishadi. Ota - ona deymizu hech ularning farzand, hayotidagi o'rinlari haqida o'ylab ko'rmaymiz. Ota bu Allohdan keyin hurmat e'zoz qilinadigan inson, be' jizga " ota rozi-xudo rozi " degan maqol aytilmagan. Ona esa bu jannat kaliti ya'ni otadan keyin ulug'lanishi kerak bo'lgan voliydamizdur. Mana shunaqa ota onani qadrlashni o'rgatish ham shu har bir ota onaning o'z qo'lida ular farzandlariga qanaqa tarbiya berishsa kelajakda shu tarbiyaning mevasini ko'rishadi. Xulosa qilib aytganda ota-ona o'z farzandlari oldidagi burch va vazifalarni ado etishlari kerak. Ular farzandlarini el-yurtga muhabbat ruhida vatanga sodiq xalqparvar qilib tarbiyashlari zarur va lozim. Tarbiya bu oiladan boshlanadi oila boshliqlari esa ota ona hisoblanadi. Demak yaxshi sog'lom oilada ilmi ota onadan tarbiya olgan bola yetuk kamolotga erishadigan shaxs bo'lib yetishadi. O'z bolalarining oldidagi burchlarini etishlari zarur bu esa kelajak avlod uchun ham foydalidir. Shunaqa ekan ota ona kichik dunyoga kelgan bolajon uchun muallim vazifasini o'tab beradi va kichik insonni yutik shaxs bo'lishida samarali tarbiya orqali kamolotga yetishtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1 <https://bolahuquqlari.uz/parents/view>
- 2 <https://minikar.ru/uz/deti/roditelskoe-sobranie-prava-rebenka---obyazannosti-roditelei/>
- 3 <https://sammuslim.uz/oz/articles/family/ota-onaning-farzand-oldidagi-burchi>